



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (2)



2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
2-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLAR TAHLILINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'NALISHLARI	12
Xudoyberdiyev Ulug'bek Axmad o'g'li	
O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA DIVIDEND SIYOSATI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	16
Shermuxeimedov Akmal Komiljonovich	
РАЗВИТИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ФИНТЕХА И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА	21
Салимова Зиёда Рустамжон қизи	
ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARIDA YO'QOTISHLAR HISOBI UCHUN ISHCHI HISOBVARAQLARI TIZIMINI ISHLAB CHIQISH	27
Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li	
RAQAMLI MUHITDA BANK XIZMATLARINI MASOFADAN KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	32
Azlarova Aziza Axrorovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SOLIQ ORGANLARI FAOLIYATINI SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	36
Soyibova Matluba Ahmedboyevna	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	41
M.O. Yo'ldoshova	
NARXLARNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYASI SIFATIDA DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISH	45
Anvar Deberdiyev	
SOLIQ MA'MURCHILIGINI RAQAMLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISH YO'LLARI	49
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
STARTAP EKOTIZIMLARINI RAG'BATLANTIRISHNING SOLIQ MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: GLOBAL MUAMMOLAR VA HUDUDIY IMKONIYATLAR	55
Ishimova Mohinur Absalomovna	
UMUMIY OVQATLANISH TIZIMIDA B2B MARKETINGINI JORIY ETISH. (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	61
Zakirova Gulnoza Quدراتovna, Aliyeva Gulnora Ildarovna	
TIBBIYOT TASHKIOTLARIDA NOMOLIVAVIY AKTIVLAR HISOBI AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	67
Iskanov Xoljigit Nurkosimovich	
RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH MARKAZIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TASHIL ETISH AMALIYOTI	73
Suyunov Yorqin Bekmurodovich, Nazarov Ubaydulla Abdumannapovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	79
Yuldashev Akmal Kiyomovich	
TOG'-KON KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIM HOLATINI BAHOLASH VA IQTISODIY SAMARADORLIK ZAXIRALARINI ANIQLASH	83
Abirova Nargizabonu	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI VA ULARNING MILLIY RIVOJLANISHI	88
Turayev Abduvohid Kuldashevich	



IQTISODIYOTNING INNOVATSION TARAQQIYOTI SHAROITIDA MEHNAT RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	93
Artiqova O'g'iljon Zafar qizi	
O'ZBEKISTON MILLIY TELERADIOKOMPANIYASI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SEMIR MODELIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	101
Rustamov Zafar	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH TANNARXINI PASAYTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	107
Metyakubov Azamat Djumanazarovich	
BUXORO ARK ANSAMBLI TURISTIK SIG'IM IMKONIYATLARINI BAHOLASH	111
Sulaymonova Malika Maxmudovna, Qilichov Muhriddin Husniddin o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ПЛАНИРОВАНИЯ, КОНТРОЛЯ И АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ НА МАЛЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ	116
Муродов Шавкатжон Фарходович, Зайналов Ж. Р.	
XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI ISHTIROKIDAGI INVESTITSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	121
Ochildiyeva Naima Mengziya qizi, Ollokulova Feruza Mansurovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDITLASH AMALIYOTIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	127
Melibayev Sodir Adilovich	
TIJORAT BANKLARI RENTABELLIGINI TA'MINLASHDA AKTIVLAR VA REGULYATIV KAPITALNING O'RNI	135
Sheraliev Abbos Xolmuminovich	
DIGITAL TRANSFORMATION OF DECISION-MAKING IN THE NATIONAL ELECTRICITY GRID OF UZBEKISTAN	140
Abdumalik A. Djumanov, Mukhlisa M. Gafurova, Tursunmurod R. Sobirov	
VIRTUAL IQTISODIYOTNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH MEXANIZMLARI	147
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
O'ZBEKISTON QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINING RIVOJLANISH HOLATI VA INSTITUTSIONAL TUZILMASI.....	152
Shamsiddinov Ne'matjon Ashurali o'g'li	
ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	157
To'ychiyeva Dilnoza Farxod qizi	
ELEKTRON TIJORAT BOZORIDA RISKLARNI BAHOLASH MASALALARI	162
Aripov Ulug'bek Bahodirovich	
UY-JOY BOZORINI IPOTEKA KREDITLASH AMALIYOTI ORQALI INTEGRATSIYA QILISH: O'ZBEKISTON SHAROITIDA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	166
A'zamxo'jayeva Nihola Sulaymon qizi	



UY-JOY BOZORINI IPOTEKA KREDITLASH AMALIYOTI ORQALI INTEGRATSIYA QILISH: O'ZBEKISTON SHAROITIDA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI

A'zamxo'jayeva Nihola Sulaymon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
2-bosqich tayanch doktranti
ORCID: 0009-0009-5556-8844

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida uy-joy bozori va ipoteka kreditlash tizimi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda ularning integratsiyalashuv jarayonlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida ipoteka kreditlash tizimining iqtisodiy mohiyati, uning moliyaviy vositachilikdagi o'rni hamda uy-joy bozorini rivojlantirishdagi ahamiyati kompleks yondashuv asosida yoritilgan. Shuningdek, mamlakatda 2024–2025-yillarda ipoteka kreditlash hajmining o'sish tendensiyalari, uning tarkibiy tuzilishi va mavjud rivojlanish omillari statistik tahlil asosida baholangan. Tadqiqot yakunida uy-joy bozori va ipoteka tizimi integratsiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ipoteka krediti, uy-joy bozori, moliyaviy integratsiya, bank tizimi, subsidiya, ipoteka obligatsiyalari, iqtisodiy rivojlanish.

Abstract. This article examines the interrelationship and integration processes between the housing market and the mortgage lending system in the Republic of Uzbekistan from both theoretical and practical perspectives. The study explores the economic essence of mortgage lending, its role in financial intermediation, and its importance in the development of the housing market based on a comprehensive approach. In addition, the growth trends of mortgage lending volumes in 2024–2025, its structural characteristics, and current development factors are assessed through statistical analysis. Based on the findings, scientifically grounded recommendations are proposed to improve the integration of the housing market and the mortgage system.

Key words: mortgage lending, housing market, financial integration, banking system, subsidies, mortgage bonds, economic development.

Аннотация. В данной статье исследуются взаимосвязь и процессы интеграции рынка жилья и системы ипотечного кредитования в Республике Узбекистан с научно-теоретической и практической точек зрения. В ходе исследования раскрыта экономическая сущность ипотечного кредитования, его роль в финансовом посредничестве, а также значение в развитии рынка жилья на основе комплексного подхода. Кроме того, на основе статистического анализа оценены тенденции роста объемов ипотечного кредитования в 2024–2025 годах, его структурные особенности и факторы дальнейшего развития. По результатам исследования разработаны научно обоснованные предложения по совершенствованию интеграции рынка жилья и ипотечной системы.

Ключевые слова: ипотечный кредит, рынок жилья, финансовая интеграция, банковская система, субсидии, ипотечные облигации, экономическое развитие.



KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining muhim drayverlaridan biri qurilish sohasi va uy-joy bozori hisoblanadi. Biroq, faqat uy-joylar qurilishi bilan cheklanib qolish yetarli emas. Aholining uy-joylarga bo'lgan ehtiyojini samarali qondirish, ularning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish hamda uy-joylarning iqtisodiy jihatdan ommabopligini ta'minlash uchun samarali moliyaviy mexanizm — ipoteka kreditlash tizimini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Uy-joy bozori va ipoteka kreditlash tizimining integratsiyasi bank tizimi, qurilish kompaniyalari hamda davlatning ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining o'zaro uyg'un faoliyat yuritishini anglatadi. Mazkur integratsiya aholining uy-joy bilan ta'minlanish darajasini oshirish bilan bir qatorda iqtisodiyotda pul aylanishini jadallashtiradi, investitsion faollikni kuchaytiradi va moliyaviy bozorlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Uy-joy bozori milliy iqtisodiyotning eng muhim segmentlaridan biri bo'lib, uning rivojlanish darajasi aholi turmush sifati, ijtimoiy barqarorlik hamda iqtisodiy o'sish sur'atlari bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, aholi sonining ortishi va uy-joyga bo'lgan talabning sezilarli darajada oshishi mazkur bozorni tizimli rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ipoteka kreditlash tizimi uy-joy bozorini moliyalashtirishning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida shakllanib, iqtisodiyotning turli tarmoqlari o'rtasida integratsion bog'lovchi vosita vazifasini bajarmoqda.

Ipoteka kreditlash orqali aholi uy-joy xarid qilish imkoniyatiga ega bo'ladi, bank tizimi uchun uzoq muddatli va barqaror daromad manbai shakllanadi, qurilish sektori esa doimiy talab bilan ta'minlanadi. Shu sababli ipoteka kreditlash tizimi nafaqat moliyaviy instrument sifatida, balki iqtisodiy integratsiyani ta'minlovchi kompleks mexanizm sifatida ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi¹.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Uy-joy bozori iqtisodiy kategoriya sifatida ko'chmas mulk bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar majmuini ifodalaydi. Ushbu bozorning o'ziga xos xususiyati shundaki, u yuqori kapital sig'imiga ega bo'lib, investitsiyalarning uzoq muddatli xarakteri bilan ajralib turadi. Uy-joy obyektlari narxlari hududiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillar ta'sirida shakllanadi, bu esa mazkur bozorni murakkab va ko'p omilli tizimga aylantiradi².

Ipoteka kreditlash tizimi esa uy-joy bozorini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash orqali uning barqaror va uzluksiz faoliyat yuritishiga xizmat qiladi. Nazariy jihatdan ipoteka kreditlash moliyaviy vositachilik mexanizmi sifatida bank tizimi orqali jamg'armalarni investitsiyalarga yo'naltirish imkonini beradi. Mazkur jarayon iqtisodiyotda moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishini ta'minlab, umumiy iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ipoteka kreditlash uy-joy bozorida talabni rag'batlantiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Aholining to'lov qobiliyati kengayishi natijasida uy-joyga bo'lgan talab ortadi, bu esa qurilish sektorining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada iqtisodiyotda multiplikativ effekt yuzaga kelib, qurilish, bank-moliya, sanoat va xizmat ko'rsatish kabi bir qator tarmoqlarning parallel rivojlanishi ta'minlanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ipoteka kreditlash tizimi izchil rivojlanib, uy-joy bozorining asosiy drayverlaridan biriga aylandi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda mamlakatda ajratilgan ipoteka kreditlari hajmi 17 trillion so'mdan oshgan bo'lsa, 2025-yilda ushbu ko'rsatkichning yanada o'sib borayotgani kuzatilmoqda. Xususan, 2025-yilning dastlabki oylarida ipoteka kreditlari hajmining 25–35 foiz atrofida o'sishi qayd etilgan³. Mazkur o'sish davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining kengaytirilishi, subsidiya dasturlarining takomillashtirilishi hamda bank tizimining faol ishtiroki bilan izohlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ayni paytda ipoteka kreditlarining asosiy qismi birlamchi uy-joy bozoriga yo'naltirilgan bo'lib, bu holat qurilish sektorining barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, yangi uy-joy massivlari va zamonaviy turar joy majmualarining barpo etilishi aholining uy-joy bilan ta'minlanish darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, ipoteka kreditlash tizimining tarkibiy xususiyatlari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, kredit resurslarining muayyan qismi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan mablag'lar asosida shakllanayotgani tizimning ijtimoiy yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bozor mexanizmlarini yanada takomillashtirish, xususi moliyaviy institutlar ishtirokini kengaytirish hamda hududlar kesimida ipoteka

1 O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati: tahliliy ma'ruza. – T., 2024. – B. 45-48.

2 O'zbekiston Respublikasining "Ipoteka to'g'risida"gi Qonuni. – T.: Adolat, 2006.

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "2024-yilda ipoteka kreditlarini ajratish mexanizmlarini takomillashtirish va aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-70-son. 30.04.2024-y.



kreditlarining muvozanatli taqsimlanishini ta'minlash tizim samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Uy-joy bozori va ipoteka kreditlash tizimining samarali integratsiyalashuvi iqtisodiy munosabatlarning uzviy bog'liqligini ta'minlab, moliyaviy va institutsional mexanizmlarning takomillashuviga xizmat qilmoqda. Mazkur integratsiya, avvalo, raqamlashtirish jarayonlari, bank va qurilish sektori hamkorligi hamda ipoteka kreditlashning bozor segmentlari bo'yicha kengayishi orqali namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda fuqaro uy-joy tanlash, subsidiya olish va ipoteka kreditini rasmiylashtirish jarayonlarini raqamli platformalar orqali amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Ayniqsa, 2024-yildan boshlab subsidiya ajratish tizimining to'liq avtomatlashtirilishi jarayonlarning shaffofligi va tezkorligini oshirdi hamda inson omilining ta'sirini sezilarli darajada kamaytirdi. Bu esa uy-joy bozori va moliyaviy tizim o'rtasidagi institutsional integratsiyani mustahkamlab, aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yangi bosqichga olib chiqdi.

Raqamlashtirish natijasida ipoteka kreditlash bilan bog'liq hujjatlarni ko'rib chiqish muddati qisqardi, ma'lumotlar almashinuvi tezlashdi hamda kredit ajratish jarayonlarining samaradorligi oshdi. Shu bilan birga, elektron platformalarning joriy etilishi moliyaviy xizmatlarning ommabopligini kengaytirib, aholining ipoteka tizimiga bo'lgan ishonchini kuchaytirmoqda.

Uy-joy bozori va ipoteka kreditlash integratsiyasining eng muhim yo'nalishlaridan biri qurilish jarayonlarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liqdir. Xususan, yangi joriy etilayotgan Escrow hisobvaraqlari tizimi xaridor mablag'larini qurilish yakunlangunga qadar bank nazoratida saqlash imkonini beradi.

Mazkur tizim bir vaqtning o'zida bir nechta iqtisodiy afzalliklarni ta'minlaydi:

- mijozlarning moliyaviy xavfsizligini kuchaytiradi;
- banklarning qurilish sifati va loyiha ijrosini monitoring qilish imkoniyatini oshiradi;
- qurilish kompaniyalari uchun barqaror moliyaviy oqim shakllantiradi.

Natijada uy-joy qurilishi jarayonlarining moliyaviy barqarorligi ta'minlanib, bozor ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro ishonch mustahkamlanadi. Bu esa qurilish sektorida investitsion faollikni oshirishga ham xizmat qiladi.

Avvalgi yillarda ipoteka kreditlari asosan birlamchi uy-joy bozori uchun ajratilgan bo'lsa, hozirgi kunda ikkilamchi uy-joy bozori ham faol ravishda kreditlanmoqda. Mazkur jarayon uy-joy bozorining barcha segmentlarida iqtisodiy faollikni oshirib, bozordagi likvidlik darajasining kengayishiga xizmat qilmoqda⁴ (1-jadval).

1-jadval. 2025-yil yakunlari bo'yicha O'zbekiston ipoteka bozorining dinamikasi⁵

Ko'rsatkich	2023-yil	2024-yil	2025-yil
Ajratilgan kredit hajmi (trln so'm)	16.9	18.2	21.5
Kredit oluvchilar soni (ming kishi)	68.4	72.1	80.0
O'rtacha foiz stavkasi (%)	18-22	17-24	16-23

Jadval ma'lumotlari O'zbekiston ipoteka bozorida uchta asosiy tendensiyani ko'rsatadi. Birinchidan, kredit hajmi so'nggi uch yil ichida 27 foizga, ya'ni 16,9 trillion so'mdan 21,5 trillion so'mgacha oshgan. Bu uy-joy bozori va bank tizimi o'rtasidagi integratsiya jarayonlari kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

Ikkinchidan, kredit oluvchilar sonining 80 ming nafarga yetgani ipoteka instrumenti aholining keng qatlamlari uchun uy-joy sotib olishning asosiy moliyaviy vositalaridan biriga aylanganini tasdiqlaydi. Bu esa uy-joy bozorida talabning barqaror shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Uchinchidan, foiz stavkalarining 16 foizdan 24 foizgacha bo'lgan diapazonda shakllanishi ipoteka bozorining ikki segmentga ajralganini ko'rsatadi: davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan imtiyozli ipoteka dasturlari hamda bozor tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi tijorat ipoteka segmenti⁶. Mazkur holat moliyaviy xizmatlar diversifikatsiyasini ta'minlab, turli daromad guruhlari uchun ipoteka imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Ipoteka kreditlari hajmining ortishi ko'chmas mulk bozorida likvidlikni ta'minlovchi hamda qurilish sohasini rag'batlantiruvchi asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda.

Ipoteka amaliyoti orqali integratsiyalashuv jarayoni bir qator muhim iqtisodiy omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular bozorning kelgusidagi rivojlanish sur'atlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

4 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Ipoteka kreditlash bozori sharhi – 2023. – B. 12.

5 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlari (2024-2026) asosida muallif tmonidan ishlab chiqildi.

6 Nosirov R., Qosimov S. Ipoteka bozori: Nazariya va amaliyot. – T.: Iqtisod-moliya, 2022. – B. 45.



– Narxlar mutanosibligi va bozor barqarorligi. Toshkent shahri hamda yirik viloyat markazlarida ko'chmas mulk narxlarining jadal o'sishi kuzatilmoqda. Mazkur holat ipoteka kreditlari hajmining ortishi bilan bir qatorda aholining uzoq muddatli to'lov imkoniyatlariga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli uy-joy narxlarining iqtisodiy asoslangan muvozanatini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

– Moliyaviy resurslar qiymati. Tashqi moliya bozorlaridan jalb etilayotgan resurslarning nisbatan yuqori foiz stavkalari hamda valyuta omillari yakuniy iste'molchi uchun kredit yukining 20 foizdan yuqori darajada shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur holat uzoq muddatli ipoteka kreditlarining ommabopligini oshirish uchun arzon va barqaror moliyaviy manbalarni kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida AQShning Fannie Mae va Freddie Mac tizimlari hamda Janubiy Koreyaning uy-joy jamg'arma tizimlari o'rganildi⁷. Mazkur tajribalar shuni ko'rsatadiki, uy-joy bozori va ipoteka kreditlash tizimining samarali integratsiyasi davlat qo'llab-quvvatlovi, bozor mexanizmlari va uzoq muddatli moliyaviy instrumentlarning uyg'unligiga asoslanadi.

O'zbekiston sharoitida eng maqbul yondashuv sifatida "gibrid model"ni qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu model quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

– kam ta'minlangan aholi qatlamlari uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan ijtimoiy ipoteka dasturlarini rivojlantirish;

– o'rta daromadli qatlam uchun tijorat banklarining bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlarini kengaytirish;

– yosh oilalar uchun jamg'arib boriladigan ipoteka mexanizmlarini rivojlantirish.

Mazkur yondashuv turli ijtimoiy qatlamlarning uy-joyga bo'lgan ehtiyojini qondirish bilan bir qatorda ipoteka bozorining barqaror rivojlanishini ham ta'minlaydi.

Uy-joy bozori va ipoteka kreditlash tizimi o'rtasidagi integratsiyani yanada takomillashtirish uchun quyidagi strategik yo'nalishlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi:

– Ipoteka obligatsiyalarini rivojlantirish. Banklarning ipoteka portfellarini qimmatli qog'ozlarga aylantirish va ularni fond bozorida joylashtirish tizimga qo'shimcha investitsiyalar jalb qilish imkonini beradi. Bu esa ipoteka kreditlash uchun uzoq muddatli moliyaviy resurslar bazasini kengaytiradi.

– "Yashil ipoteka" mexanizmlarini joriy etish. Energiya tejankor va zamonaviy ekologik standartlarga mos uy-joylarni xarid qilish uchun imtiyozli foiz stavkalarini qo'llash aholining ekologik uy-joylarga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda energiya samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

– Skoring tizimini takomillashtirish. Kredit baholash jarayonida faqat rasmiy daromadlarni emas, balki bilvosita moliyaviy ko'rsatkichlarni ham hisobga oluvchi zamonaviy skoring tizimlarini keng joriy etish ipoteka xizmatlarining ommabopligini oshirishga yordam beradi.

Shuningdek, uy-joy bozori va ipoteka kreditlash tizimi integratsiyasini yanada kuchaytirish uchun kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Avvalo, ipoteka kreditlari bo'yicha foiz stavkalarini bosqichma-bosqich optimallashtirish orqali aholining kredit olish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, ipoteka obligatsiyalarini keng joriy etish bank tizimini uzoq muddatli va barqaror moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar asosida ipoteka kreditlash jarayonlarini soddalashtirish va ularning shaffofligini oshirish tizim samaradorligini yanada kuchaytiradi. Hududiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash maqsadida viloyatlarda maxsus ipoteka dasturlarini amalga oshirish ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali ipoteka kreditlash tizimidan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ipoteka kreditlash tizimi nafaqat moliyaviy xizmat turi, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi muhim strategik instrument hisoblanadi. Uy-joy bozori va ipoteka kreditlash tizimi o'rtasidagi integratsiya qanchalik chuqur va samarali tashkil etilsa, bozordagi shaffoflik, moliyaviy barqarorlik hamda investitsion faollik shunchalik yuqori bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, ipoteka tizimi uy-joy bozorini tartibga soluvchi, moliyaviy oqimlarni jadallashtiruvchi va makroiqtisodiy muvozanatni qo'llab-quvvatlovchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ipoteka kreditlash tizimining rivojlanishi uy-joy bozorining kengayishi, qurilish sektorining faollashuvi hamda aholining uy-joy bilan ta'minlanish darajasining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, raqamlashtirish jarayonlari, subsidiya dasturlarining takomillashtirilishi, bank va qurilish sektori hamkorligining kuchayishi hamda ikkilamchi uy-joy bozorining kreditlanishi tizim integratsiyasining yangi bosqichga o'tayotganini ko'rsatadi.

⁷ Green R. K., Wachter S. M. The American Mortgage in Historical and International Context. // Journal of Economic Perspectives, 2005. – Vol. 19. – P. 93-114.



Shu bilan birga, tizim samaradorligini yanada oshirish uchun ipoteka obligatsiyalarini rivojlantirish, uzoq muddatli moliyaviy resurslar bazasini kengaytirish, zamonaviy skoring tizimlarini joriy etish hamda “yashil ipoteka” mexanizmlarini qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, hududlar kesimida ipoteka kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish tizimning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, O'zbekistonda uy-joy bozori va ipoteka kreditlash tizimi o'rtasidagi integratsiya iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. So'nggi yillarda ushbu yo'nalishda erishilgan natijalar ijobiy baholanmoqda. Kelgusida ipoteka kreditlash tizimini yanada takomillashtirish, bozor mexanizmlarini rivojlantirish hamda xalqaro ilg'or tajribalarni milliy amaliyotga moslashtirish orqali uy-joy bozori samaradorligini oshirish va aholining uy-joy bilan ta'minlanish darajasini yanada yaxshilash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-sonli Farmoni, <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.03.2021-yildagi “Aholi va tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlaridan foydalanishda yanada qulay sharoitlar yaratish, bu borada byurokratik to'siqlarni qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-6191-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/-5339616>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.04.2025-yildagi “2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida”gi PF-70-sonli Farmoni, <https://lex.uz/uz/docs/-7488166>
5. O'zbekiston Respublikasining 04.10.2006-yildagi “Ipoteka To'g'risida”gi O'RQ-58-sonli Qonuni, <https://lex.uz/uz/docs/-1063359>
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Ipoteka kreditlash bozorining sharhi: 2023–2024-yillar. Toshkent, 2024. Manba: <https://www.cbu.uz>
7. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati bo'yicha tahliliy hisobotlar (2023–2025-yillar). Manba: <https://www.stat.uz>
8. O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi (O'IQMK). Yillik moliyaviy hisobotlar va bozor tahlillari. Manba: <https://www.uzmrc.uz>
8. Abdullayev, A. J. (2023). “Uy-joy bozori va moliya tizimi integratsiyasi: O'zbekiston tajribasi”. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy-elektron jurnali.
9. Tursunov, B. (2024). “Ipoteka kreditlash tizimini raqamlashtirishning istiqbolli yo'nalishlari”. Moliya va bank ishi jurnali, №2.
10. Nosirov, R., & Qosimov, S. (2022). Ipoteka bozori: nazariya va amaliyot. Darslik. Toshkent: “Iqtisod-moliya”.
11. Green, R. K., & Wachter, S. M. (2005). “The American Mortgage in Historical and International Context”. Journal of Economic Perspectives.
12. Lee, C. (2021). “The Housing Finance System in South Korea: Lessons for Emerging Economies”. Asian Development Bank Institute Working Paper Series.
13. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali. “Subsidiya olish uchun ariza berish tartibi va statistikasi” bo'limi. Manba: <https://my.gov.uz>
14. World Bank Group. (2024). Uzbekistan Economic Monitor: Housing Market and Financial Inclusion. Manba: <https://www.worldbank.org>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
